

USA

INTERNATIONAL SCIENTIFIC
ONLINE CONFERENCE



ISOC

INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES

INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM



25 JULY
2023 YEAR

USA, WASHINGTON

Info.interconf@mail.ru

www.interonconf.org

ISTE'DODINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Jumayev Nodir Zayniddinovich

*BuxDu Psixologiya va sotsiologiya
kafedrasida Kattita o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida iste'dodli o'quvchilarni tanlash va ular bilan samarali ishlash yo'llarini turli xil usullari yoritib berilgan. Yoshlarda ko'rinadigan iste'dod juda ko'p xilma-xillikda namoyon bo'lishi va u qanchalik nodir bo'lsa, shunchalik o'ziga xos, takrorlanmas xususiyatlari, shuningdek, yoshlarni ichki ma'naviy dunyosi boy, zukko odamning shakllanishida bevosita tashqi ma'naviy muhitning roli katta ekanligi to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Motivatsiya, xulq-atvor, qobiliyat, layoqat, o'z-o'zini boshqarish, faoliyat, iste'dod, bilish motivlari, intellekt.

Abstract: In this article, various methods of selecting talented students and working with them effectively in higher education institutions are highlighted. The talent visible in young people is manifested in a great variety and the rarer it is, the more unique and unrepeatable features, as well as the fact that the external spiritual environment plays a big role in the formation of young people with a rich inner spiritual world and an intelligent person.

Keywords: Motivation, behavior, ability, competence, self-control, activity, talent, cognitive motives, intellect.

Barcha xatti-harakatlarimizning asosida anglashilgan, ba'zan esa anglashilmagan motivlar yotadi. Motivlarning turlaridan biri layoqatlardir. Yorqin shakllangan layoqatlar faoliyatga intilganlik bilan o'zini namoyon qiladi. Kishi u ki bu faoliyatni ko'proq yoqtirsa, u yoki bu faoliyatni tanlasa, shu faoliyat bilan mashg'ul bo'lishni ich-ichidan istab, xohlab tursa, biz bu kishini layoqatli deb ataymiz. Demak, layoqatlar faoliyatni o'rganish, uni o'zlashtirishga intilish bo'lib, dastlab anglashilmagan motiv hisoblanadi va albatta, ushbu faoliyatga havas, zavq bilan erishish, o'zlashtirishga undaydi, kishiga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi.

Shu sababli bajarayotgan faoliyatida u charchamaydi, zerikmaydi. Qobiliyatlar, shubxasiz, aksariyat paytda layoqatlar asosida, faoliyatda shakllanadi va biron bir faoliyatni yengil o'zlashtira olishida namoyon bo'ladi. Lekin uning ta'rifida bir nozik tomoni bor. Qobiliyatlar deb faoliyatni

muvaffaqiyatli bajarish imkoniyatini beruvchi xususiyatlarga aytiladi. Ya'ni muvaffaqiyatli bajarishning o'zi hali qobiliyat emas, bu gap qobiliyatlardan darak berishi mumkin. Lekin qobiliyat bo'la olmaydi. Qobiliyat deb muvaffaqiyatni ta'minlaydigan imkoniyatlarga aytiladi. Aynan imkoniyatlar faoliyatda rivojlanishi, takomillashuvi mumkin. Aynan imkoniyatlar u yoki bu faoliyatni yengil, oson va tez o'zlashtirishni ta'minlaydi. Bundan, shubxasiz, bajaruvchining o'zi ruhlanadi va o'z faoliyatini tobora takomillashtirib boradi, shu sohaning ustasiga aylanadi. Demak, qobiliyatli kishi bilimdon, keng qamrovli, qo'lidan har xil ish kelishi, har xil amaliy va aqliy faoliyatni zukkolik bilan o'rgana olishi ana shundandir. Shu sababli, har qanday qobiliyat, u qanchalik murakkab o'ziga xoslik bo'lmasin, albatta ijtimoiy muhit qadriyatlari bilan baholanadi. Aynan shu muhit qadrlagan qobiliyatlar jamiyatda ko'proq rivojlanishi kuzatiladi. Qobiliyatlarning tashxisi, layoqatlardan ko'ra osonroq. Chunki, qobiliyat faoliyatda namoyon bo'ladi va rivojlanadi. Iste'dod esa ko'p qirrali va juda rivojlangan qobiliyatlar majmuasidir. Ushbu ta'rifdan ketib tasavvur qiladigan bo'lsangiz, iste'dodli kishilar kamdan kam uchraydi. To'g'ri, iste'dodli kishi, o'z nomi bilan nodir kishidir. Uning o'ziga xos, boshqalarga o'xshamaydigan xislatlari ko'p. Lekin hayotda, ayniqsa, pedagogik faoliyatda iste'dod so'zi yengil va ancha keng ishlatiladi. Uni pedagogik ma'noda iqtidor so'zi bilan almashtirilishi tasodif emas. Chunki iqtidor so'zi tarixan yerli, boybadavlat, bir narsasi bor kishiga, endilikda esa bilimdon kishiga aytilmoqda. Demak, iqtidor deganda biz a'lochi, yaxshi o'qiydigan, bilimdon, faol o'quvchilarni ko'z o'ngimizda gavdalantiramiz. Iste'dod, shunday qilib, qobiliyatlar majmuasi, o'ta rivojlanganlik holati bilan ajralib turib, avvalo, o'zlashtira olish tezligi, zukkoligi, xushyorligi bilan tavsiflanadi. Iste'dod birinchi navbatda o'z yo'nalishiga ega bo'ladi. Yo'nalish turlarini sanab o'tish qiyin, chunki har bir iste'dod sohibining o'ziga xos iste'dod yo'nalishi bor, u qaytarilmasdir. Inson psixikasining boshqa ko'rinishlarini tabaqalaganlaridek, iste'dodning ham umumiy ko'rinishlarini quyidagi guruhlarga yoki turlarga birlashtiradilar: - Aqliy (intellektual) soxa iste'dodi. - San'at soxasi iste'dodi. - Muloqot yoki boshqaruv soxa iste'dodi. - Amaliy soha yoki sport soxasi iste'dodi. Ko'rinib turganidek, har bir soxa o'zining keng qamrovliligi bilan ajralib turadi va har bir turning ichida yanada kichikroq yo'nalishlarni farq qilish mumkin. Bundan tashqari boshqacha asosga ega bo'lgan tabaqalash turlari ham taklif etilgan. Demak, iste'dodda ma'lum bir xil ko'rinish yo'q. Iste'dod juda ko'p xilmaxillikda namoyon bo'ladi va u qanchalik nodir bo'lsa, shunchalik o'ziga xos, takrorlanmasdir. Shu jihatdan iste'dodli kishining shaxsiy xislatlarining

o'ziga xos tomonlarini ko'rib chiqish maqsadga yondoshishga yordam beradi.

Jumladan, A.M.Matyushkin iborasi bilan aytilsa, ijodiy iste'dod tarkibining rivojlanishida shaxsning integral xususiyatlarining eng muhimlaridan quyidagilarni farq qilish mumkin.

1. Bilish motivlarining boshqa motivlardan ustunligi.

2. Voqea va hodisalarga sezgirligi, nozik did bilan o'xshash voqealarda farqni, har xil narsalarda o'xshashlikni ko'ra olish, payqay olish, yangilikni ko'ra olish, tadqiq etish, o'rgana olish, masala, muammoni qo'ya olish, ijodiy yondosha olish.

3. Original xulosalar, fikrlarga kela olish, takrorlanmas, o'ziga xos fikrmulohaza, nazarlarga kela olish.

4. Voqea va hodisalarning oqibatini, kelajagini tez va aniq tasavvur qila olish, oldindan bashorat qila olish, chuqur tahlil asosida jarayon va voqealarning oqibatini nazorat qila olish, oqibatini asosli bashorat qila olish.

5. Har bir voqea va hodisalar haqida yorqin idealga yaqin etalon tasavvurlarga ega bo'lish va shu tasavvur va nazarlar orqali axloqiy, ilmiy, aqliy-intellektual, milliy, badiiy baholar, talqinlar bera olish.

Ijodiy iste'dod uchun zarur bo'lgan bu kabi integral shaxs xususiyatlari kishini ham ma'naviy jihatdan ham aqliy zakovat tomondan uzoqni ko'ra biladigan, keng dunyoqarashli, sabr-toqatli, kechirimli, olijanob inson qiladi. Bunday ichki ma'naviy dunyosi boy, zukko odamning shakllanishida bevosita tashqi ma'naviy muhitning roli katta. Shu bilan birga ijodiy iste'dod sohibining unga xos bo'lgan layoqatlar, qobiliyatlar va ayniqsa, qobiliyatlarning yorqin shakllangan, rivojlangan ko'rinishlari bo'lmasa, muhitning o'zigina kishini ulkan ijodiy yutuqlarga olib kelmaydi. Ijodiy iste'dodning mazmuni shundaki, oliy darajadagi ijod uchun albatta shakllangan, ko'p qirrali qobiliyatlar, iste'dod asos bo'lishi kerak. Layoqatlarning bevosita psixologik tashxisi yo'q. Layoqatlarning aniq tashxisi miya faoliyatining o'ziga xos integral xususiyatlari orqali, ya'ni amalga oshirilishi mumkin. Layoqatlarni aniqlash qobiliyatlarni barvaqt aniqlash demakdir. SHu sababli zarur sharoitda EEG usulida layoqatlarni barvaqt aniqlash imkoniyati bor, masalan 10-11 yoshdan boshlab. Lekin amalda ko'proq qobiliyatlar tashxis qilinadi. Bunga sabab bolada u yoki bu qobiliyat bor bo'lsa o'sha sohadagi faoliyatni tez, yengil va muvafaqqiyatli bajara oladi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, psixologik testlar aslini olganda odam hayotida bajaradigan faoliyat turlarining umumlashtirilgan modeli hisoblanadi:

- psixologik va pedagogik testlarning mohiyati, ularning farqi.

- ta'lim muassasalari;
- ta'lim metodlari va ularning amaliy ahamiyati;
- mustaqil ta'limning roli;
- ustoz va shogird munosabatlarining iste'dod masalasiga aloqadorligi.

Ushbu munosabatlarda tarkib topadigan yoshlarning yuqorida ta'kidlab o'tilgan xususiyatlari aniqlash mumkin.

Talantning ijtimoiy-tarixiy, tabiiy nuqtai nazardan talqini qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichi ekanligidan dalolat beradi. Talant yunoncha qimmatbaho, noyob narsa, irsiy tabiiy xislat degan ma'noni anglatib, muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli va ijodiy ravishda bajarilishini ta'minlaydigan qobiliyat hamda iste'dodlar majmuasidan iborat individual xususiyatdir. Psixologik adabiyotlarda unga turlicha ta'rif berilishiga qaramay, ularda asosiy belgilar ta'kidlab o'tiladi, chunonchi shaxsga qandaydir murakkab mehnat faoliyatining muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar majmuasiga talant deyiladi.

Talantning asosiy belgilari:

- a) muvaffaqiyatni ta'minlash;*
- b) faoliyatni mustaqil bajarish;*
- v) originallik unsurining mavjudligi qobiliyat hamda iste'dodlar yigindisidan iborat ekanligi;*
- d) individual psixologik xislatliligi;*
- e) ijtmoiy turmushni o'zgartiruvchi yaratuvchilik imkoniyati kabilar.*

Psixologik ma'lumotlarni umumlashtirgan holda ikki xil xususiyatli fikrni alohida ta'kidlab o'tish talant tuzilishini yaxshiroq tushunish imkoniyatini yaratadi.

1) talant - bu shaxs psixik xislatlarining shunday birikmasidirki, uni a) alohida yagona maxsus qobiliyat bilan; b) xotiraning yuksak mahsuldorligi orqali; v) xatto noyob sifat tariqasida o'lchab bo'lmaydi.

2) shaxsda u yoki bu qobiliyatning mavjud ekanligi hamda yetarli darajada taraqqiy etganligi talantning murakkab tarkibiga kiruvchi boshqa qobiliyatlarning jadal takomillashuvi orqali ularning o'rnini bosib yuborishi (konsensasiya qilish) mumkin.

Moskvaning umumiy va pedagogik psixologiya instituti xodimlari tomonidan o'quvchilarning talanti, iste'dod tushunchasi o'rganilgan. Aniqlangan muhim qobiliyatlar yig'indisi aql iste'dod tuzilishini vujudga keltirilgan. Ilmiy tadqiqotchilarning fikricha, yuksak iste'dod quyidagicha bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin:

A) bunday shaxsning birinchi xususiyati ziyraklik, shaylik, jiddiy faoliyatni bajarishga tayyor turishlikdir.

B) shaxsning ikkinchi xususiyati uning mehnatga tayyorgarligi (mehnatga moyilligi, mehnatga intilishi, mehnatning ehtiyojga aylanishi)dir.

V) insonning uchinchi xususiyati unda tafakkur xususiyatlari va fikr yuritishning tezligi, aqlning tartibli, tahlil va umumlashtirishning yuqori imkoniyatlari, aqlning mahsuldorligi. Ma'lumotlar tahlilining ko'rsatishicha, maxsus iste'dod tuzilishi yuqoridagi sifatlardan tashqari aniq faoliyat talablariga muvofiq keluvchi bir qator qobiliyatlar bilan to'ldiriladi.

Talant o'zining umumiy va maxsus sifatlari yig'indisi bilan ijodiy yutuq imkoniyatining ayniyatidir. Talant mahoratning dastlabki sharti hisoblansa-da, lekin ular bir-birlaridan muayyan darajada tafovutlanadi. Talant - katta ijodiy va zo'r mehnat mahsulidir. Mehnat esa hayotiy tajriba ko'nikmalarning zaruriy majmuasi manbaidir. Ijodiyotning sharti va hayotiy tajriba zaruriy ko'nikma malakalar yig'indisining mavjudligidir. Ijodiy faoliyat talantning ajralmas qismi hisoblanib, bunda ruhlaniş deb nomlangan psixologik holat alohida ahamiyat kasb etadi. Ruhlaniş esa faoliyat mahsuldorligi ortishiga qaratilgan ijodiy lahzadan iboratdir. Talant imkoniyat tariqasida psixologik hodisa hisoblansa, u holda mahorat haqiqatga aylangan imkoniyat gavdalanishdir. Psixologik nuqtai nazardan haqiqiy mahorat bu shaxs talantining faoliyatda namoyon bo'lishidir.


Agar jamiyat taraqqiyoti bunday kishilarga muhtoj bo'lsa bunday kishilarning paydo bo'lish imkoniyati tug'iladi. Iste'dod qobiliyatlar yig'indisidan, ularning majmuidan iboratdir. Alohida olingan yakka qobiliyatlar garchi u taraqqiyotning juda yuksak darajasiga erishgan va yorqin ifodalangan bo'lsa ham iste'dod bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Bu haqda g'oyat o'tkir fenomenal xotiraga ega bo'lgan kishilar haqida o'tkazilgan tadqiqotlar dalolat beradi.

Moskvalik psixologlar bir necha yillar davomida kuzatgan shaxslar o'zida xotiradan boshqa qobiliyatlarni rivojlantirmadi va shuning uchun u o'zining ajoyib qobiliyatlarga mos keladigan ijobiy muvaffaqiyatga erisha olmadi.

Shunday qilib, iste'dod shaxs psixik sifatlarining shu qadar murakkab birikmasidirki, u qandaydir birorta yagona qobiliyat bilan bu qobiliyat xotiraning yuksak mahsuldorligi kabi muhim ahamiyatga ega.

Psixologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha birorta ham qobiliyatning yo'qligi yoki yetarli taraqqiy etmaganligi iste'dod sifatlarining murakkab turiga kiruvchi boshqa qobiliyatlarning jadal taraqqiyoti yo'li bilan muvaffaqiyatli ravishda o'rni bosib boriladi.

Qobiliyatlar rivojlanishini quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin.



Har qanday layoqat qobiliyat darajasiga ko'tarilishi uchun eng murakkab yo'lni bosib o'tishi kerak bo'ladi. qobiliyatlar ilk davrlardanoq rivojlana boshlab, bir necha bosqichda amalga oshadi.

M.G.Davletshin texnikaviy iste'dod ko'rsatkichlarini an'anaviy baholashni tan olgan holda (ko'z bilan chamalash, fazoviy tasavvur, texnikaviy tahlil, konstruksiyalash qobiliyati) o'zining original yondashuvini ishlab chiqqan. Texnikaviy qobiliyat darajasini tashxis qilish uchun tekshirishlarda ishlab chiqilgan eksperimental masalalarning to'qqizta seriyasidan foydalanadi.

Keyingi yillar ichida o'zbekiston psixologiyasida ham qobiliyat va iste'dod masalalari bo'yicha bir qancha psixologlar ish olib bormoqdalar. Bu sohada B.R.Qodirov, B.S.Sodiqov, E.G'.G'oziev, V.A.Tokareva, Z.Nishonovalarning tadqiqot ishlari ma'lum bo'lib, qobiliyat, iste'dod tushunchalariga o'z ta'riflarini berganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Цукерман Г.А., Венгер А.Л. Развитие учебное самостоятельности. – М., 2010. - 432 с.
2. Ratelle C.F., Guay F., Vallerand R.J., Larose S., Senecal C. Autonomous, controlled, and amotivated types of academic motivation: A person-oriented analysis // *Journal of Educational Psychology*, 2007. - V. 99. - P. 734-746.
3. Deci E.L., Ryan R.M. *Intrinsic motivation and self-determination in human behavior*. New York: Plenum, 1985.
4. Гордеева Т.О., Сычев О.А., Осин Е.Н. Внутренняя и внешняя учебная мотивация студентов: ее источники и влияние на психологическое благополучие // *Вопросы психологии*, 2013. №1. - С. 35-45.
5. Бандура А. *Теория социального научения*. - СПб.: Евразия, 2000. — 320



**INNOVATION IN THE MODERN
EDUCATION SYSTEM**

Part 32

JULY 2023

COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

Washington, USA
25th July 2023

INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM: a collection scientific works of the International scientific conference (25th July, 2023) – Washington, USA: "CESS", 2023. Part 32 – 138 p.

Editorial board:

Martha Merrill, PhD Kent State University, USA

David Pearce, ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva, PhD Toronto, Canada

Nikadambayeva Hilola Batirovna, Candidate of Pedagogical Sciences,
docent

Pirimov Akram Pirimovich, docent

Shodiyev Furqat Davranovich, Candidate of Technical Sciences, docent

Languages of publication: русский, english, казахша, o'zbek, limba română,
кыргыз тили, Հայերէն

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference "**INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM**". Which took place in Washington on JULY 25, 2023.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2023
© Authors, 2023

TABLE OF CONTENTS	
Sardorbek Ergashev TAX CONTROL WHEN SETTING THE TRANSFER PRICE	6
Bazarov Ihtiyor Rahmatullayevich, Kenesova Jazira Baurjan qizi METHODS FOR IMPROVING WRITING	16
Махкамова Умида РАЗНОСТОРОННОСТЬ КОМПОРАТИВИЗМА ПОНЯТИЯ «ПРЕДЛОЖЕНИЕ»	19
Махкамова Умида ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЕ РАСКРЫТИЕ ПОНЯТИЯ «ПРЕДЛОЖЕНИЯ» ПО ФОРМАЛЬНОМУ НАПРАВЛЕНИЮ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР СИНТАКСИСА В ЯЗЫКОЗНАНИИ	21
Махкамова Умида РАЗНОСТОРОННОСТЬ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ПРЕДЛОЖЕНИЯ В ЯЗЫКЕ	23
Махкамова Умида СПЕЦИФИКА ЛИТЕРАТУРЫ 20-ГО ВЕКА: ОТРАЖЕНИЕ ВРЕМЕНИ И РАЗНООБРАЗИЕ СТИЛЕЙ	25
Sherov Quvondiq Polvonnazarovich FUQAROLARNING QONUNCHILIK TASHABBUSI HUQUQI: XORIJIY TAJRIBA	27
Fayziyeva Gulzoda Ulugbekovna WHY DO TALENTED PEOPLE DRINK ALCOHOL?	32
Mavlonov Muzaffar Otabek o'g'li, Mutalov Shuhrat Ahmadjonovich. "BIZ INTILGAN IDEAL INSON YOKI ZAMONAVIY TALABA QIYOFASI"	36
Omoboyeva Muhisa Azamat qizi OSIYO YO'LBARSI SIGAPUR	40
Mukhammadiyev Islomjon G'ayrat o'g'li LYRICS BY ALISHER NAVOI	43
Norpulotova Rano THE INDISPENSABLE ROLE OF ADOBE PRODUCTS IN UX/UI DESIGN. ADOBE PRODUCTS OVERVIEW.	48
Xasanova Xilola Abdumutalovna QISHLOQ XO`JALIGIGA IXTISOSLASHGAN MAKTAB YARATISH VA UNING KELAJAK UCHUN ISTIQBOLLARI	51
Barotova Xurshida Jalolovna ZAHIRIDDIN BOBUR SALTANATIDA VAFO VA SADOQAT RAHNAMOLARI	55
Amonboyeva Fariza MILLIY ANA'NALARNING ETNOGRAFIK MOXIYATI QOZOQ XALQI URF ODATI MISOLIDA	60
Xaydarov Oxunjon QADRIYAT TUSHUNCHASI VOSITASIDA O'QUVCHI SHAXSINI AXLOQIY SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	65
Turakhanov A.A. CONDUCTED STUDIES THAT CONTRIBUTE TO THE PREVENTION OF NEGATIVE IDEOLOGY AND THE DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGICAL STABILITY AMONG STUDENTS OF MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS.	72
Бобойев Миродилло Қосимжон ўгли БУХОРО АМИРЛИГИНИНГ ОЛТИН ХАЗИНАСИ	83
Matnazarov Asadbek G'ayratjon og'li YOSH VOLEYBOLCHILARNING TEXNIK TAYYORGARLIGINI JISMONIY TARBIYA VOSITALARI YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI	89
Tadjibayev Azizbek Tulkunovich. BIZNESNI DIVERSIFIKATSIYALASHNI RISK MENEJMENT VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI	95
Qaxorova Nilufar ICHKI BOZORIMIZDAGI SUT MAHSULOTLARINI SIFAT KO`RSATGICHINI NAZORAT QILISH.	99
Валиев Мохир Камолович КЎЧМАС МУЛКНИ САМАРАЛИ БОШҚАРИШДА СЕРВЕЙИНГ ХИЗМАТИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ	102
Даминов Ф.А., Хакимов Э.А. АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОПЕРАТИВНОГО ЛЕЧЕНИЯ ГЛУБОКИХ ОЖОГОВ У ЛИЦ ПОЖИЛОГО И СТАРЧЕСКОГО ВОЗРАСТА	107
Davlatov Abdullajon	110

TURLI DARAJADA DEGRADATSIYAGA UCHRAGAN YAYLOVLARDA DEHQON VA FERMER XO`JALIKLARI TASHKIL ETISH TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI	
Kenesbayev Azizbek Salamat o'g'li Urinbayeva Malika Muratbek qizi WEB ILOVALARNI ISHLAB CHIQISHDA QO'LLANILADIGAN JAVASCRIPT FREYMWORGLARINING TAHLILI	117
Nurova Shakhida Naimovna THE PROBLEM OF NATURE AND HUMAN PHILOSOPHY IN THE WRITINGS OF BERUNI AND IBN SINA.	120
Rsaliev Arman Turdibekovich FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH BASED ON PLAYING DIDACTIC GAMES	125
Ф.А. Хаджибаев., С.Ж. Камолов., Б.А Янгиев., Ф.Ш. Мавлянов. ТЕЧЕНИЕ ПОСЛЕОПЕРАЦИОННОГО ПЕРИОДА У БОЛЬНЫХ ДЕСТРУКТИВНЫМИ ФОРМАМИ ОСТРОГО АППЕНДИЦИТА.	129
Jumayev Nodir Zayniddinovich O`QUVCHILAR ISTE`DODINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	132